

OLIY TA'LIM TIZIMIDA DASTURLARNI LOYIHALASHTIRISH TAMOYILLARI

Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Mustaqil izlanuvchi
+998881510230
saydillayevamehrinaz@gmail.com

Amirqulova Gulsevar Eshmo'min qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi
+99947383606
Gulsevaramirqulova@50gmail.com

ANNOTATSIYA

Jamiyatning har jabhasi tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim paradigmalarining o'zgarishiga, buning natijasida esa ta'lim tizimi, xususan, umumiy ta'lim maqsadlarining mazmun va miqdor jihatdan yangilanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyat uchun barcha sohalarida har tomonlama rivojlangan, mantiqiy tafakkurga ega, intellektual salohiyatli, refleksiv-tahliliy va ijodiy-kreativ yondashuv joriy eta oladigan, yuksak kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxslar, mutaxassis-kadrlar talab etiladi. Bu talablarga javob beradigan maqsadlarga erishish uchun o'qitishning an'anaviy shakllari, "bilim berish", "o'quv materialini bo'yicha maksimum ma'lumot va axborot berish"ga qaratilgan metodlar hamda texnologiyalar to'g'ri ma'noda yaroqsiz bo'lib qoldi. Maqolada ta'limning barcha bo'g'inlarida umumta'lim, kasbiy va maxsus fanlar o'rtasidagi integrativ bog'liqlikni ta'minlash hamda ta'lim va tarbiya jarayonlarida o'zaro to'ldiruvchanlik xususiyatlarini takomillashtirish orqali ta'lim oluvchining ta'limiy, kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy-kreativ potensialini yuzaga chiqarish kabi vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun pedagog-kadrlar va mutaxassislarni o'qitishning eng zamonaviy metodlari, yangidan yangi texnologiyalari, takomillashtirilgan metodikalari, shakl va vositalari va o'qitish amaliyotiga pedagogik innovatsiyalar, ta'lim dasturlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, jarayon, ta'lim dasturlari, pedagog, jamiyat, o'qituvchi faoliyati, ijtimoiy muhit, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat.

ПРИНЦИПЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОГРАММ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Стремительное развитие каждого аспекта общества ведет к изменению парадигм образования, в результате чего система образования, в частности общеобразовательные цели, обновляется в содержательном и количественном плане. Для современного общества требуются люди, специалисты-кадры, обладающие высокими профессиональными компетенциями, всесторонне развитые во всех сферах, обладающие логическим мышлением, интеллектуальным потенциалом, умеющие внедрять рефлексивно-аналитический и креативно-творческий подходы. Для достижения целей, отвечающих этим требованиям, традиционные формы обучения, методы и технологии, направленные на “передачу знаний”, “предоставление максимальной информации и информации об учебном материале”, в прямом смысле стали непригодными.

В статье рассматриваются современные методы обучения педагогических кадров и специалистов для успешного выполнения таких задач, как развитие образовательных, профессиональных и личностных качеств обучающегося, формирование его научного мировоззрения, раскрытие творческо-творческого потенциала путем обеспечения интегративных связей между общеобразовательными, профессиональными и специальными дисциплинами во всех звеньях образования и совершенствования свойств взаимодополняемости в образовательном и воспитательном процессах. новые технологии, усовершенствованные методика, формы и средства, а также педагогические инновации в педагогической практике, речь идет о образовательных программах.

Ключевые слова: образование, процесс, образовательные программы, педагог, общество, деятельность учителя, социальная среда, педагогическое мастерство, педагогические способности.

PRINCIPLES OF PROGRAM DESIGN IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

The rapid development of every aspect of society leads to a change in educational paradigms, as a result of which the education system, in particular general education goals, is updated in terms of content and quantity. Modern society

requires people, specialists, personnel with high professional competencies, comprehensively developed in all areas, with logical thinking, intellectual potential, able to implement reflective, analytical and creative approaches. In order to achieve goals that meet these requirements, traditional forms of education, methods and technologies aimed at “transferring knowledge”, “providing maximum information and information about educational material”, have literally become unsuitable. The article discusses modern methods of teaching teaching staff and specialists for the successful implementation of such tasks as the development of educational, professional, and personal qualities of the student, the formation of their scientific worldview, and the disclosure of their creative potential through the provision of integrative connections between general educational, professional, and special disciplines at all levels of education and the improvement of the properties of complementarity in the educational and upbringing processes. new technologies, improved methods, forms, and means, as well as pedagogical innovations in pedagogical practice, refer to educational programs.

Keywords: *education, process, educational programs, teacher, society, teacher’s activities, social environment, pedagogical skills, and pedagogical abilities.*

KIRISH

Ta’lim jarayonida o‘quv dasturlarining ishlab chiqilishi ta’lim tizimida markazlashgan va tizimli tarzda bir qator usullar orqali amalga oshirilishini aytib o‘tgan edik. Biroq ta’lim jarayonida bir qator omillar borki, o‘qituvchi ularni inobatga oladi. Bu omillarga ta’lim oluvchilarning xususiyatlari va qiziqish doiralari, ularning bilish motivlari va intilish sohalari, ijtimoiy-madaniy muhit, hududga xos bo‘lgan qadriyatlar va faqat mazkur hududga xos bo‘lgan muammolarni kiritish mumkin. [1.22]

Ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’limning mazmun-mundarijasini mazkur omillardan kelib chiqqan holda boyitish, o‘qituvchi o‘z tadqiqotchilik va kreativlik mahoratlarini namoyon qilish orqali eng zamonaviy manbalar, sohaga oid ilmiy kashfiyotlardan foydalanib, taqdim etilgan o‘quv dasturini boyitishi, ta’lim oluvchilarga BMK (bilim, malaka va ko‘nikmalar) berishning samarali vositalaridan mustaqil foydalanishi mumkin. Buning uchun u mavjud, ya’ni taqdim etilgan o‘quv dasturiga ayrim korreksiylar kiritishi, uni mazmungan boyitishi mumkin bo‘ladi. Biz bu jarayonni tadqiqotimiz maqsadlaridan kelib chiqib, “o‘quv dasturini loyihalash” degan tushuncha bilan ifodalaymiz. Ya’ni ayni o‘rinda o‘quv dasturini loyihalash degan tushuncha orqali o‘qituvchining mavjud asosiy dasturni talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga oid yangiliklar, o‘zgaruvchan amaliy vaziyatlar, davlat tomonidan

qo'yiladigan rivojlanuvchi talablarni inobatga olgan holda mazkur omillarga muvofiqlashtirishi, boyitishi tushuniladi.


MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quv dasturini loyihalash – bu ta'lim jarayonida talabalarga beriladigan bilim va ko'nikmalarni qanday tartibda va qaysi metodlar orqali taqdim etishni rejalashtirish jarayonidir. Bu jarayon, talabalarni maksimal darajada samarali o'qitish uchun mos bo'lgan, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni, metodlarni va baholash usullarini o'z ichiga oladi.

O'quv dasturini loyihalash davomida eng avvalo maqsad belgilab olinadi. O'quv dasturining asosiy maqsadlari va natijalari aniqlanadi, bu talabalardan qaysi bilim va ko'nikmalarni kutish kerakligini belgilaydi. O'quv dasturida qanday pedagogik metodlar (masalan, amaliyot, interaktiv darslar, muhokamalar) va vositalar (kitoblar, multimedia resurslari) qo'llaniladi. O'quv materiallari va resurslarining tarkibi va shakli ishlab chiqiladi, bu materiallar talabalarga o'rgatilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishi kerak. Talabalar qanday qilib baholanadi va o'quv natijalari qanday tekshiriladi, masalan, testlar, loyihalar, yozma ishlar orqali.

O'quv dasturining davomida kerakli o'zgarishlar kiritilishi uchun moslashuvchanlikni ta'minlash zarur, chunki ta'lim jarayonida turli omillar (talabalarining turli ehtiyojlari, yangi texnologiyalar) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Umuman olganda, o'quv dasturini loyihalash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarga eng yaxshi o'qitish tajribasini taqdim etish maqsadida amalga oshiriladi.

1.6-jadvalda o'quv dasturini loyihalashtirish bosqichlari



Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini hosil qiluvchi pedagogik ta'limni takomillashtirish vazifasini oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonida o'quv dasturlarini loyihalashtirishga ijodiy yondashuv joriy etishga urg'u bermoqchi ekanmiz, avvalo, o'quv dasturlarini loyihalashtirish tamoyillari, asosiy qoidalari, oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonining strukturasi va funksiyalari, pedagogik ta'limning strukturasi va asosiy funksiyalari hamda "o'quv dasturi – ta'lim jarayoni – pedagogik ta'lim" uchligi ichida kechadigan o'zaro aloqadorlik kabi masalalarga zarur darajada to'xtalib o'tishimiz lozim bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim dasturlarini loyihalashtirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalarga zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni taqdim etish uchun dasturlarni yaratish va tashkil etish jarayonidir. Ta'lim dasturi loyihalashtirilayotganda, talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari inobatga olinishi kerak. Dastur talabalarning maqsad va intilishlariga mos bo'lishi, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam berishi lozim. Ta'lim dasturi tizimli tarzda yaratiladi. Bunda o'quv rejasining barcha elementlari (kurslar, fanlar, amaliy mashg'ulotlar, baholash mezonlari va boshqalar) o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradigan bo'lishi kerak. Har bir elementning o'z o'rniga va maqsadiga xizmat qilishi lozim.

Oliy ta'lim dasturlari talabalarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Dasturda kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ta'lim jarayoni interaktiv va amaliy bo'lishi kerak. Kurslar, seminarlar, laboratoriya ishlar, guruhli ishlar va boshqa amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga o'rganayotgan materiallarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. O'quvchilarning faol ishtiroki va interaktivlik dasturda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim dasturi zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Raqamli ta'lim vositalari, onlayn kurslar, simulyatsiyalar va boshqa zamonaviy usullar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Dastur modullarga bo'lingan bo'lishi lozim. Har bir modul mustaqil o'quv bo'lagi sifatida yaratiladi, bu talabalarga o'rganishni qadam-baqadam, tizimli tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Har bir modulning maqsadi va natijalari aniq belgilanadi.

Ta'lim dasturi doirasida talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash tizimi aniq bo'lishi zarur. Bu baholash jarayoni shaffof, adolatli va talabalarning real yutuqlarini ko'rsatadigan tarzda tashkil etilishi kerak. Dasturning elastikligi uning ta'lim jarayoniga tezda moslashishga imkon berishini anglatadi. Talabalarning ehtiyojlariga, jamiyatdagi o'zgarishlarga va texnologiyalarga moslashish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, dastur yangi bilimlar va tajribalar

asosida yangilanib turishi lozim. Oliy ta'lim dasturi ijtimoiy va madaniy jihatlarni inobatga olishi kerak. Bu talabalarning turli madaniyat va an'analar bilan tanishishiga yordam beradi.

Ta'lim dasturlari o'zining sifatini tasdiqlovchi sertifikat va tan olish tizimiga ega bo'lishi kerak. Dastur talabalarga o'z sohasida kasbiy malaka va sertifikat olish imkonini taqdim etadi, bu esa ularning bozor talablariga mos keladigan malakalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim dasturlarini loyihalashtirishda innovatsion yondashuv, amaliy ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olish muhimdir. Ta'lim dasturlari nafaqat bilimlarni uzatish, balki talabalarda kasbiy va shaxsiy rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirishga ham qaratilgan bo'lishi lozim. [2.4]

Oliy ta'lim tizimida o'quv dasturlarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilinadi:

-ilmiylik va variativlik tamoyili: unga ko'ra, loyihalashtiriladigan dasturda ilmfanning bevosita o'rganilayotgan o'quv fani sohasidagi yutuqlari, yangiliklari, kashfiyotlar, shuningdek, zamonaviy voqealar inobatga olinishi hamda bu dasturda ta'lim oluvchilarning o'zlari mustaqil belgilagan ta'lim traektoriyalari inobatga olinishi lozim. Ushbu tamoyil asosida ta'lim jarayonida ilmiy asosga tayangan va amaliyotda o'zining samaradorligini isbotlagan metodlar va yondashuvlarni qo'llashni nazarda tutadi. Bu tamoyil ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, bilimlarning ishonchliligi va dolzarbligini saqlashga xizmat qiladi. Talabalarga ilmiy fikrlash, tadqiqot metodlarini o'rganish va ilmiy tahlilni o'rganishga imkon berish kerak. Bu ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida ilmiy usullar, tekshiruv va tajribalar qo'llanilishi kerak, bunda aniq dalillar, faktlar va ilmiy izlanishlar asosida qarorlar qabul qilinadi. Ilmiylik tamoyili nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu talabalarni nazariy bilimlarni real hayotda qo'llashga o'rgatadi.

Dasturda talabalarning qobiliyatlari, o'rganish tezligi, qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab turli o'quv metodlari va strategiyalarini qo'llash mumkin. Bu ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Dasturda turli metodlar (masalan, amaliy mashg'ulotlar, guruhli ishlar, onlayn ta'lim, laboratoriya ishlari) qo'llanilishi orqali talabalarga o'zlarining eng samarali o'rganish usullarini topishga yordam beradi. Dasturda turli ta'lim vositalari (kitoblar, video materiallar, interaktiv platformalar, simulyatsiyalar) taqdim etilishi lozim. Bu talabalarga ko'proq resurslardan foydalanishga imkon yaratadi. Dasturda talabalarni individual yondashuv orqali o'rganish imkoniyatlari taqdim etilishi kerakki, bu ularning o'z bilimlarini mustaqil tarzda rivojlantirishga yordam beradi.

Ilmiylik va variativlik tamoyillari bir-birini to'ldiruvchi tamoyillardir. Ilmiylik ta'limning ilmiy asosini ta'minlaydi, bilimlarni ishonchli va aniq tarzda yetkazadi. Variativlik esa talabalarning turli ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini individual va moslashuvchan qiladi. Ushbu tamoyillarni ta'lim dasturlarida qo'llash talabalarga yuqori sifatli, zamonaviy va samarali ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

-amaliyot bilan uyg'unlik tamoyili: mazkur tamoyilda OTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayonning o'quv dasturi va pedagogik ta'lim mazmun-mundariyasi bevosita amaliy faoliyatga oid eng dolzarb muammolarning yechimiga qaratilgan zamonaviy loyihalar va ta'lim dasturlarining muhim elementlari bilan boyitilishini nazarda tutadi. Ushbu tamoyil asosida ta'lim dasturlarida o'rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirishni anglatadi.

Ushbu tamoyil ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni real hayotda qo'llash uchun zarur ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Amaliyot bilan uyg'unlik tamoyili ta'limni talabalarning kundalik hayoti va professional faoliyatiga yaqinlashtiradi, bu esa o'rganilgan bilimlarning samarali qo'llanilishini ta'minlaydi. Ta'lim dasturlari nazariy bilimlarni amaliyotga asoslangan faoliyat bilan uyg'unlashtirilishi orqali. talabalar o'rgangan nazariy konseptlarni amaliy ishlar mazmunini tushunadilar va o'zlashtiradilar.

Amaliyot bilan uyg'unlik tamoyilini amalga oshirish uchun turli amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, tajribalar va treninglar tashkil etilishi kerak. Bu talabalarga o'z bilimlarini sinab ko'rish, tajriba qilish va amaliyotda o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda, talabalar o'zlarini real sharoitda qanday ishlashlari kerakligini ko'rsatadilar. Ushbu tamoyil asosida talabalarga soha mutaxassisleri yordam berishi muhimdir. Mutaxassislar ta'lim oluvchilarga amaliy masalalarni hal qilishda yordam beradi, zarur bilim va ko'nikmalarni qanday qo'llashni ko'rsatadi hamda talabalarning o'rgangan bilimlari va ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yoki loyihalar orqali baholanadi. Bu baholash tizimi ularning amaliy qobiliyatlarini ham nazorat qilish imkonini beradi. Bu tamoyil talabalarga o'z sohalarida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni o'zlashtirish imkonini yaratadi. Natijada, talabalar bilimlarini samarali qo'llashni o'rganadilar va o'zlarining professional faoliyatiga tayyorlanadilar.

-ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy maqsadlariga muvofiqlik tamoyili: mazkur tamoyilda ta'lim-tarbiyaning nafaqat muayyan faoliyat sohasida kasbiy kompetentsiyalar shakllantirishga, balki jamiyatning faol a'zosini tarbiyalashga qaratilganligi o'quv dasturida o'z aksini topishi nazarda tutiladi

Ushbu tamoyil ta'lim va tarbiya jarayonida jamiyatning umumiy ehtiyojlari va istiqboldagi rivojlanishiga xizmat qilishini ko'zda tutadi. Bu tamoyil ta'lim tizimining jamiyatdagi rolini va uning ijtimoiy mas'uliyatini belgilaydi, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonining jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydi. Ta'lim va tarbiya jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlariga javob berishi kerak. Bu jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, texnologik va iqtisodiy o'zgarishlarga mos ravishda ta'lim dasturlari yangilanib turishi zarur. Masalan, zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish, ekologik ongni rivojlantirish, inson huquqlari va demokratik qadriyatlar bo'yicha ta'lim berish ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Ta'lim va tarbiya jarayonlari jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, an'analar va me'yorlarga muvofiq bo'lishi kerak.

Ta'lim jamiyatda hurmat, tenglik, adolat, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni targ'ib qilishi lozim. Bular orqali yosh avlodda yaxshi fuqarolikni shakllantirish va jamiyatning ma'naviy darajasini oshirishga yordam beradi. Ta'limning muhim ijtimoiy maqsadlaridan biri – ijtimoiy tenglikni ta'minlashdir. Bu, ta'lim imkoniyatlarini barcha ijtimoiy qatlamlarga, jinsi, millati yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar teng taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Ta'limda ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun ta'lim oluvchilarni turli ijtimoiy ehtiyojlar asosida qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'lim tizimini yaratish zarur.

Ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy maqsadlariga muvofiqlik tamoyili ta'lim jarayonini jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari va qadriyatlariga asoslanib qurishga yo'naltirilgan. Ushbu tamoyil ta'lim va tarbiyaning jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga mosligini ta'minlashga yordam beradi. Natijada, yosh avlod jamiyatda o'zining ijtimoiy rolini tushunadigan, madaniy va demokratik qadriyatlarni qabul qiladigan, kasbiy faoliyat uchun tayyorlangan va ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan fuqarolar bo'lib voyaga yetadi.

-ta'lim jarayoni va pedagogik ta'lim funksiyalariga muvofiqlik tamoyili:

ma'lumki, pedagogik ta'limning eng muhim tarkibiy qismi sanalgan ta'lim jarayoni o'z funksiyalariga ega (ta'limiy, rivojlantiruvchilik va tarbiyaviy funksiyalar). O'quv dasturi mazkur funksiyalarni rivojlantirishga qaratilmog'i zarur. Ta'lim jarayonida pedagogik funksiyalarni samarali amalga oshirish va talabalarning o'zlashtirish jarayonini maksimal darajada samarali qilish uchun ta'lim jarayonining barcha bosqichlarining bir-biri bilan muvofiqligini ta'minlashni anglatadi. Ushbu tamoyil pedagogik maqsadlar, vazifalar va metodlarning o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim jarayoni maqsad va vazifalarga asoslanadi, bu esa pedagogik funksiyalarni aniq belgilashni talab qiladi. Ta'lim maqsadlari ta'lim oluvchilarning bilimlarini, ko'nikmalarini va qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan

bo'lishi kerak, va pedagogik funksiyalar (bilim berish, tarbiya, rivojlantirish) shu maqsadlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Misol uchun, agar maqsad kasbiy tayyorgarlik bo'lsa, bilim berish va rivojlantirish funksiyalari talabalarning kasbiy malakasini oshirishga yo'naltiriladi.

Pedagogik ta'lim funksiyalarini amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Nazorat va baholash jarayoni ta'lim maqsadlariga erishish va talabalarning yutuqlarini aniqlashda yordam beradi. Baholash mezonlari ta'lim jarayonidagi maqsadlar va pedagogik funksiyalar bilan uyg'un bo'lishi kerak. Misol uchun, ko'nikmalarni baholashda amaliy testlar va loyihalar qo'llanilishi mumkin, bilimlarni tekshirishda esa an'anaviy testlar ishlatiladi. Bundan tashqari ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim oluvchilarga qulay, didaktik jihatdan samarali muhit yaratish zarur. Bu muhitning ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirish, yaratish va o'zaro muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etish kerak.

Ta'lim jarayoni va pedagogik ta'lim funksiyalariga muvofiqlik tamoyili ta'lim va tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun barcha pedagogik komponentlarning bir-biriga uyg'un bo'lishini ta'minlaydi. Bu tamoyil, ta'lim oluvchilarni yuqori darajada bilim, ko'nikma va tarbiya bilan ta'minlashga yordam beradi. Har bir pedagogik metod, vosita va o'quv materiallari ta'lim maqsadlari va pedagogik funksiyalar bilan to'liq mos kelishi, shuningdek, ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

-vorisiylik tamoyili: ta'lim jarayonida avvalgi avlodlardan o'rganilgan bilim, tajriba va qadriyatlarning yangi avlodlarga uzatilishi prinsipini anglatadi. Bu tamoyil ta'limning uzluksiz va avlodlar o'rtida o'tib boruvchi xarakterini ta'minlaydi. Vorisiylik tamoyili ta'lim tizimining tarixiy va madaniy merosga, ijtimoiy qadriyatlar va an'analarga asoslanganligini ko'rsatadi. Talabalarga avlodlar tajribasini, bilimni va madaniyatini o'rgatish, ularni avvalgi yutuqlarga asoslangan holda rivojlantirish zarurligini anglatadi. Vorisiylik tamoyili faqat avvalgi tajribalarni saqlab qolish bilan cheklanmaydi, balki yangi bilimlar va innovatsiyalar yaratishning ham asosi hisoblanadi. Yangi avlod oldingi yutuqlarni o'rganib, yangi g'oyalar va kashfiyotlar yaratishga intiladi. Bu bilimning rivojlanishi va jamiyatning o'sishiga hissa qo'shadi. Bu tamoyil orqali jamiyatning tarixiy, madaniy va ilmiy merosi saqlanib, yangi avlodlarga o'rnatilgan qadriyatlar va bilimlar uzatiladi. Ta'lim tizimi o'quvchilarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham o'rgatadi, bu esa jamiyatning doimiy ravishda rivojlanishini ta'minlaydi.

-integrativlik tamoyili: mazkur tamoyil muayyan o'quv faniga yondosh fanlar va fanlar majmuasi bilan turli darajadagi aloqadorliklar hamda integratsiyalashuvlarni


nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida turli ilmiy sohalar va pedagogik metodlarni birlashtirishni va ta'lim oluvchilarda umumiy va tizimli bilimlarni shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan tamoyildir. Bu tamoyil ta'limning turli jihatlarini o'rtasida uzviy aloqalar va uyg'unlikni yaratish, turli bilimlarni integratsiyalash orqali talabalarda kompleks ko'nikmalarni rivojlantirishni maqsad qiladi.

Integrativlik tamoyili ta'lim jarayonida turli fanlar va ilmiy yo'nalishlarning birlashishiga imkon yaratadi. Integrativlik tamoyili turli fanlar bo'yicha o'quv dasturlarining o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Integrativ yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Fanlararo yondashuv, o'quvchilarga turli bilim sohalarining o'zaro aloqalarini ko'rish, har bir fanning qanday qarashlar va metodlarni taklif etishini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ta'lim oluvchilarning fikrini erkin va tanqidiy shakllantirishlariga yordam beradi.

Integrativlik tamoyili talabalarda innovatsion fikrlash va kreativlikni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Turli fanlarni birlashtirish orqali yangi fikrlar va yechimlar yaratishga imkon beradi [3.10].

Quyidagi 1.7-jadvalda ta'lim jarayonida o'quv dasturlarini loyihalashtirish tamoyillari keltirilgan.

1.7 rasm o'quv dasturlarini loyihalashtirish tamoyillari



Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida ilmiylik va variativlik tamoyili asosida ishlab chiqilgan parsial dasturning izohini

keltirib o'tamiz. Ushbu parsial dasturning kirish qismida dasturning nomi, maqsadi, ta'lim jarayonida davomiyligi keltirilgan. **"Ta'lim jarayonining tashkil etilishi va samaradorligi"** nomli parsial dastur maqsadi ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishi, ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, o'qitish metodlarini va pedagogik texnologiyalarni rivojlantirishga oid bilimlarni shakllantirish hisoblanadi. Ushbu dasturning tarkibiy qismini ta'lim jarayoniga kirish, talabalarning psixologik xususiyatlari, ta'lim metodikasi, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish hamda yakuniy baholash kabi mavzular tashkil etadi.

Dasturning yakunida talabalar ta'lim jarayonini samarali boshqarish, bilim berishda innovatsion metodlardan foydalanish, va baholash tizimini tashkil etish bo'yicha zarur pedagogik ko'nikmalarni egallashadi. Ular ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ularning o'rganish faoliyatini motivatsiya qilishga qodir bo'ladilar. Bu dastur ta'lim jarayonining barcha asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi, ta'lim oluvchilarni o'qitish va ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi. Dastur, shuningdek, ta'lim metodikasini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, o'qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida parsial o'quv dasturlarini loyihalashtirish orqali pedagogik ta'lim metodikasini takomillashtirishda biz, ta'lim jarayoni va pedagogik ta'limni tashkil etish asnosida bajariladigan asosiy funksiyalarga to'xtalib o'tishimiz lozim bo'ladi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etish orqali ta'limning quyidagi funksiyalarining muvaffaqiyatli bajarishiga erishadi:

A). **Ta'limiy funksiyasi.** Bu funksiya ta'lim oluvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalar, reproduktiv va mahsuldor ijodiy faoliyat tashkil etish tajribalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Reproductiv va mahsuldor ijodiy faoliyatni tashkil etish tajribasi o'z xususiyatiga ko'ra, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida shakllantirilishi ko'zda tutilgani holda, bilim, malaka va ko'nikmalar haqida bunday deb bo'lmaydi, negaki, mazkur elementlar ixtisoslashtirilganlik xarakteriga egadir (ya'ni har bir o'quv yoki ta'lim fan doirasidagi BMKlar mazmun va maqsadiga ko'ra farqlanadi). Ta'lim jarayonining ta'limiy funksiyasi muvaffaqiyatli bajarilishi o'quv dasturlarining mazmunan boy, hajman optimal qisqa, ijodiy-kreativlik asosida loyihalashtirilganlik darajasiga bog'liqdir [4.8]

B). **Rivojlantiruvchilik funksiyasi.** Ta'lim oluvchi o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan pedagogik jarayonda bilim, malaka, ko'nikma, ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtirish asnosida o'z-o'zini rivojlantirish usullarini axtarishi va topishi ham nazarda tutiladi. Psixologik adabiyotlardan ma'lumki, shaxsni rivojlantirish faqat

faoliyat ichida sodir bo'ladi, pedagogikada esa bu masala shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida shaxsni rivojlantirish uning yangi bilimlarni o'zlashtirish yo'llarini izlab topishida, mustaqil ravishda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishida, o'z ta'lim traektoriyasining belgilanishiga faol aralashuvida, o'quv-bilish muammolarini hal etishda antikonformistik yondashuv namoyon qilishida ko'rinadi. Sodda qilib aytganda, ta'limning rivojlantiruvchilik funksiyasi ta'lim oluvchida sifat o'zgarishlarini yuzaga chiqarish, undagi kreativ potensialni tarbiyalashga va davomli rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik jarayonda bajariladigan vazifadir.

Ta'lim jarayonida mazkur funksiyaning samarali amalga oshirilishiga erishish uchun o'quv materiallari mundarijasini nostandart vazifalar, noan'anaviy yondashuvni talab etuvchi muammoli vaziyatlar bilan boyitish talab etiladi.: bu esa o'quv dasturini ishlab chiqish masalasiga tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashish zarurligini taqozo etadi [6.13]

V). Tarbiyalash funksiyasi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining axloqiy-etik sifatleri va estetika haqidagi tasavvurlarini shakllantirish nazarda tutiladi. Bu sifatlar va tasavvurlar ta'lim oluvchi shaxsining dunyoqarashi kengayishi, qadriyatlar haqidagi bilim va tushunchalari ortishi, o'z-o'zini tutish me'yorlari, tartib-qoidalarini qalban anglab etishi asnosida shakllanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxs tarbiyasining aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ijtimoiy-kommunikativ tarbiya va huquqiy tarbiya kabi aspektlariga e'tibor qaratiladi. Ta'lim jarayonida mazkur aspektlarning qaysi biriga ko'proq urg'u berilishi ta'lim jarayonining maqsadiga bog'liq. Masalan, umumta'lim maktabi o'qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan ta'lim jarayonida asosiy e'tibor iqtisodiy, ijtimoiy-kommunikativ, huquqiy va ekologik tarbiyaga urg'u berilsa, maktabgacha ta'lim tarbiyachi-pedagoglarini tayyorlash tizimidagi ta'lim jarayonida aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya kabi aspektlar birinchi planga chiqadi [7.12.]. Ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan o'qituvchi tarbiyalash funksiyasining maqsadlari hamda kasbiy tayyorlash mazmunidan kelib chiqqan holda o'z o'quv dasturini ishlab chiqishi lozim bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosiy funksiyalari va bu funksiyalarni takomillashtirish bo'yicha mutaxassislarning fikr-mulohazalariga asoslangan tavsiyalar jadval ko'rinishida taqdim etiladi (qarang: 1.8-jadval).

Hattoki, biz pedagogik ta'limni takomillashtirish masalasini o'rganar ekanmiz, mazkur jarayon asnosida bajariladigan asosiy funksiyalar, uning strukturasi, xossalari, tarkib hosil qiluvchi asosiy elementlari, shuningdek, pedagogik ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan nufuzli mulohazalarga ham to'xtalib

o'tish lozim deb hisoblaymiz. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy OTMlarda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish maqsadida parsial dasturlar ishlab chiqish davomida ta'lim tamoyillariga, ta'lim funksiyalariga amal qilishimiz lozim. Ta'lim funksiyalari haqida bir qancha olimlar, shu jumladan; V.A.Salestinin, Smirnov S.A., Mitina L.M., Yakovleva N.M. va boshqalar pedagogik ta'lim orqali bir qator funksiyalarni bajarish mumkin deb hisoblaydilar:

1. Releativ funksiyalar (lotincha – “xabar” ma'nosida): tarbiya amaliyotini ijtimoiylashtirish hamda pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida yuzaga keladigan muayyan vaziyatlarning talabalar tomonidan mustaqil hal etilishi hamda faoliyatni takomillashtirishni ta'minlaydigan bilim, malaka, tajribalarning bilvosita yoki bevosita bo'lajak o'quvchilarga taqdim etish tajribalarini hosil qilib borishda namoyon bo'ladi [5.12].

2. Regulativ funksiya (tartibga solish, yo'nalish berish ma'nosini anglatadi): o'quv jarayonidagi xatti-harakatlarning majmuasini ma'lum bir standartlar asosida tartibga solish va ta'lim oluvchi shaxsining ijtimoiylashuviga ko'mak beruvchi muhim xatti-harakatlarni nazorat qilishga qaratilgan bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi [7.9].

3. Aksiologik funksiya (qimmatli, qadriyat ma'nolarida): bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarda har qanday ijtimoiy institutda, shuningdek, har qanday o'quv fani yoki tarbiya mazmunida barcha uchun umume'tirof etiladigan qadriyatlarning mavjudligini anglash va mazkur qadriyatlarni yuzaga chiqarish hamda o'quv materialli mundarijasi bilan uyg'unlashtirish qobiliyatini yuzaga chiqarishni nazarda tutadi

4. Integrativ funksiya (umumlashtirish, yaxlitlash demakdir): pedagogik yo'nalishdagi OTM talabalarida har bir mavzu, o'quv fani, yaxlit holda ta'lim-tarbiya jarayonidagi kognitiv, tarbiyaviy, qadriyatli, rivojlantiruvchi mazmunlarni uyg'unlashtira olish mahoratini rivojlantirib borishga qaratiladi.

5. Ta'limiy funksiyasi: bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy fanga, unga yondoshlik xususiyatiga ega bo'lgan fanlarga oid bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, intellektual va psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish, keng dunyoqarashni shakllantirish hamda ijodiy-metodik va tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish zarur bo'ladigan qobiliyatlarini shakllantirish va davomili rivojlantirib borishga qaratiladi.

6. Tarbiyalash funksiyasi: talabalarning nafaqat ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonidagi, balki bevosita kasbiy faoliyatlariga aloqasi bo'lmagan sohalaridagi munosabatlarini yo'lga qo'yish uchun zarur bo'ladigan shaxsiy, psixologik, ijtimoiy-madaniy, kommunikativ sifatlari hamda mahoratlarini shakllantirish vazifasini bajaradi.

7. Rivojlantirish funksiyasi: mazkur funksiyaning bajarilishi orqali talabalarda pedagogik va ijodiy-metodik bilim, malaka, ko'nikma, mahorat hamda qobiliyatlar, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantiribgina qolmasdan, ularning mustaqil faoliyatda o'zlarini to'laqonli namoyish etishlari, kasbiy faoliyat davomida o'zgarib boradigan talablarga moslashib borishlari, o'z-o'zini refleksiv-tanqidiy tahlil etib borishga, yuzaga kelgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf qilishlari uchun zarur bo'ladigan psixologik, ijobiy-emosional sifatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

8. Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi: zamonaviy o'qituvchi va tarbiyachi-pedagoglar faqat o'z kasbiy sohasida yuksak bilim, malaka, kompetensiyalarga ega bo'lib qolmasdan, turli sohalar, ijtimoiy hayotning turli jabhalariga oid bilimlar, axborot va ma'lumotlarni o'rganib borishi, o'quv jarayonlarida ulardan mohirona foydalanishi, shuningdek, voqea-hodisalarga ilmiylik nuqtai nazaridan munosabat bildirish, fikrni argumentlash hamda dalillar yordamida isbotlash orqali o'z o'quvchilari va tarbiyalanuvchilarida atrof-muhit voqealarini anglashga qiziqish va motivasiya uyg'otib borishi zarur. Pedagogik ta'limni dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi talabalarda mazkur sifatlarning shakllanishi uchun xizmat qilmog'i kerak [7.9].

Biz quyida pedagogik ta'lim asnosida bajariladigan funksiyalar va ularning bajarilishi samaradorligiga erishish uchun tavsiya etilgan usullarni ko'rgazmali tarzda taqdim etamiz.

OTMda pedagogik ta'limni takomillashtirishga qaratilgan ta'lim jarayonining sifatini parsial o'quv dasturlarini ishlab chiqishda muayyan o'quv fanining uzluksiz ta'limning quyi bosqichlarida amal qilinadigan mazmun-mundariyasi va o'quv dasturlariga tayanish talab etiladi. Quyida OTMdagi pedagogik ta'limni takomillashtirish maqsadida ishlab chiqiladigan o'quv dasturlarini loyihalashtirishda, pedagogik ta'limning mazmun-mundarijasini belgilashda amal qilinadigan tamoyillar va ulardan kutiladigan natijalar jadval ko'rinishida taqdim etiladi (qarang: **1.3-jadval**).

Shunday qilib, ta'lim jarayonida o'quv dasturlarini parsial dasturlar asosida loyihalashtirish pedagogik ta'limni takomillashtirishda boshqa vosita va mexanizmlar qatori muhim ahamiyatga ega deb hisoblashga asoslar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Учитель и ученик: возможность диалога и понимания. – Том 2. / Под общ. ред. Л.И.Семиной. – М.: Изд-во «Бонфи», 2002. – 408 с.] .

2. Ralph W. Tyler "Basic Principles of Curriculum and Instruction" 1949-y University of Chicago Press nashri 124b
3. [Заир-Бек, Е.С. Педагогические ориентиры успеха (актуальные проблемы развития образовательного процесса): Методические материалы к обучающим семинарам [Текст] / Е.С. Заир-Бек, Е.И. Казакова. – СПб., 1995. – 64 с.].
4. Педагогика дополнительного образования. Психолого-педагогическое сопровождение детей. Учебник для академического бакалавриата / ред. Байбородова Л. В. М.: Юрайт, 2019. 364 с.].
5. Савенков А. И. Педагогика. Исследовательский подход в 2 ч. Часть 1. Учебник и практикум для академического бакалавриата. Учебник. М.: Юрайт, 2019. 232 с.].
6. Щуркова Н. Е. Педагогика. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособие для бакалавриата и магистратуры. М.: Юрайт, 2019. 320 с
7. Смирнов С.А. Педагогика: Педагогические теории, система, технологии. – М.: «Академия», 2000. – 512 с.
8. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. М., 1998
9. В.А.Сластенин, Введение в педагогическую аксиологию, Москва, Издательский центр “Академия”, 2003, с-82